

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## “NAZM UL-JAVOHIR” RUBOIYLARINING QOFIYA XUSUSIYATLARI

**Durdona Zohidova**

*Qo‘qon DPI dotsenti, f.f.n.*

*E-mail: [zohidova1972@gmail.com](mailto:zohidova1972@gmail.com)*

**Shoiraxon Xo‘jayeva**

*PhD, Qo‘qon DPI o‘qituvchisi*

*E-mail: [shoiraxon24@gmail.com](mailto:shoiraxon24@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari qofiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda struktural metod asosida “Nazm ul-javohir”ning eng muhim qofiya qirralari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ruboiy, hikmat, qofiya, ilmi qavofe’, ichki qofiya, turkiy so‘zlar, turkiy tilning grammatik imkoniyatlari.

**Annotation:** This article is dedicated to the study of the unique features of the rhyme of Alisher Navoi’s work “Nazm ul-javohir”. It reveals the most important rhyming aspects of “Nazm ul-javohir” based on the structural method.

**Key words:** rubai, wisdom, rhyme, science of qawafe’, internal rhyme, Turkish words, grammatical possibilities of the Turkish language.

**Аннотация:** Данная статья посвящена исследованию уникальных особенностей рифмы произведения Алишера Навои “Назм уль-джавахир”. В нем, исходя из структурного метода, раскрываются важнейшие аспекты рифмы “Назм уль-джавахир”.

**Ключевые слова:** рубай, хикмат, рифма, наука о рифме, внутренняя рифма, турецкие слова, грамматические возможности турецкого языка.

Qofiya she’rning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mumtoz she’riyatimizda unga badiiyatning asosiy omili sifatida qaralgan. Shu bois mumtoz adabiyotshunosligimizda qofiyani o‘rganuvchi maxsus soha – ilmi qofiya vujudga kelgan. Nazm ilmini o‘rganishda qofiya saboqlarining ahamiyati borasida Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida shunday fikrlarni bildiradi: “Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab’g‘a qofiya ilmin bilmak muhimdir. Zeroki, tab’ning natijasi she’rdur. Va she’rning asli qofiya. Va qofiyasiz she’r mumkin ermas... Va zurafo baytni xayma (chodir)g‘a nisbat qilibturlar va qofiyani stung‘a. Ya’ni xayma stun birla barpoydir” [6,3].

Qofiya ilmida asosiy e’tibor qofiyaga tanlangan so‘zlarning ohangdor va jozibadorligiga, chuqur mazmunga egaligiga hamda uning mavzuga muvofiqligi, asarda ko‘tarilgan g‘oya mohiyatini ochishdagi o‘rniga qaratiladi. Zero, “qofiya she’riy asarlarda ifodalanayotgan ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar, teran falsafiy mushohadalarni badiiy so‘z vositasida jozibali va ta’sirchan aks ettirishning muhim vositalaridan biridir” [7,195].

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“Nazm ul-javohir” ruboiylarining qofiyasi xususida Navoiyning o‘z davrida ham, keyingi davr navoiyshunosligida ham ko‘plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, zamonasining mashhur tarixchisi Xondamir o‘zining “Makorim ul-axloq” asarida shunday yozadi: “Nasr ul-laoliy”ning turkiycha tarjimasida ikki yuz oltmish ruboiy nazm qilgandirlarki, uning har to‘rt misrai bir xil qofiya va bir xil radiflidir. Ko‘rinishicha, ul Hazratdin ilgari hech kim turkiy tilda ruboiy aytmagan, har to‘rt misrai qofiyadosh va radifdosh bo‘lganiga nima yetsin” [5,50].

Shu o‘rinda asar tarjimonlari M.Faxriddinov va P.Shamsiyev mazkur ta’kidga: “Navoiyga qadar bir necha o‘zbek shoirlari turkiy tilda ruboiy aytganlari ma’lumdir. Lekin Xondamir bu yerda ma’lum darajada mubolag‘a qilgan ko‘rinadi, aftidan, serma’no, eng go‘zal ruboiylarni Navoiy yaratdi, demoqchi bo‘lsa kerak”, – deya izoh berib o‘tadilar [5,50].

M.Rajabova ayni shu xususda so‘z yuritib, “Turkiy tilda Navoiygacha Hofiz Xorazmiy va Lutfiy ruboiylari ham mashhur bo‘lganini hisobga olsak, Xondamirning yuqoridagi mulohazalari Navoiy ruboiylari g‘oyaviy-badiiy jihatidan mahoratining balandligiga berilgan yuksak bahosi deb ham qarash mumkin”, – degan fikrni bildiradi [3,104].

Yo.Is‘hoqov bu xususda shunday xulosa qiladi: “Lutfiy devonidagi to‘rtliklarning asosiy qismi ramal bahrida yozilgan. Lekin ular o‘zbek yozma adabiyotida klassik ruboiy janrining shakllanishida muhim bosqich bo‘lganligi, shubhasiz. Yaqinda aniqlangan Hofiz Xorazmiyning she’rlari esa Navoiyga ma’lum bo‘lmaganligi aniq. Demak, Navoiy o‘zbek adabiyoti tarixida klassik ruboiy janrining asoschisi hisoblanadi”[2,79].

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, ruboiy janr sifatida turkiy adabiyotda Navoiydan avval ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, e’tiborli janr sifatida keng ommalashmagan. Alisher Navoiy, bir tomondan, bu janrni shakliy jihatdan boyitib, taronayi ruboiyga asos solgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘zi ham ushbu yo‘nalishda barakali ijod qilib, uni g‘azaldan keyingi eng ahamiyatli janr sifatida mavqeini yuksaltirgan.

Alisher Navoiy Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalarining ijodini puxta o‘zlashtirgani va ularning qofiyadan foydalanish tajribalarini chuqur o‘rgangan holda ularni o‘zining yutuq va kashfiyotlari bilan boyitdi. Navoiy poetikasining o‘ziga xosliklaridan biri uning mutlaqo original qofiyalarga boyligidir. Xususan, “Nazm ul-javohir”ning eng muhim qofiya qirralari sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“Nazm ul-javohir” ruboiylarida ko‘p hollarda hikmatning **kesimi** ruboiyning qofiyasi vazifasini bajarib kelganiga guvoh bo‘lamiz. Gapning fikriy markazi bo‘lgan kesimdan qofiya sifatida foydalanishdan maqsad ruboiy qatiga berkitilgan hikmatdagi bosh g‘oyaga fikr urg‘usini berishdir.

*Har kimgaki ko‘p taom yemak fandur,  
Bilgilki, najosatqa tani maskandur,  
Qorning bila do‘st bo‘lmasang ahsandur,  
Nevchunki er o‘g‘lig‘a qorin dushmandur [1,139].*

Hazrat Alining “Batn ul-mar‘i aduvvahu” (“Kishining qorni uning dushmanidir”) hikmati ushbu ruboiy uchun asos bo‘lib, uning mazmuni she‘rning to‘rtinchi misrasida o‘z ifodasini topgan. Yuqoridagi misralarda shoir ko‘p taom yemoqlikning qanday oqibatlarga olib kelishini aniq misollar vositasida tushuntirib, nafsning yo‘liga yurib, qorin bilan do‘st bo‘lmaslik lozimligini uqtiradi. Hikmatdagi singari ruboiyda ham “qorin” so‘zi majoziy ma‘noda kelib, “nafs” mazmunini ifodalagan. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, hikmatda kesim vasifasida kelgan so‘z ruboiyda ham ayni vazifada kelib, “fandir”, “maskandir”, “ahsandir” so‘zlari bilan birgalikda she‘r qofiyasini tashkil etgan.

Asarda ayrim hollarda hikmatli so‘zda **ega** vazifasini bajarib kelgan so‘z ruboiy uchun qofiya sifatida tanlangan:

*Xo‘b ermas dayn muddaosi elga,  
Kim, qattig‘ erur burch balosi elga,  
Qaytarmoq erur aning davosi elga,  
Kim, dindin erur burch adosi elga. [1,137]*

Hazrat Alining “Ado‘ ud-dayni min ad-dini” (“Burchni ado etmoq dindandir”) hikmati asosida bitilgan ushbu ruboiyda ham hikmat mazmuni an‘anaviy ravishda to‘rtinchi misrada beriladi. Shoir hikmatda ega vazifasida kelgan “burch adosi” jumlasiga mos ravishda “muddaosi”, “balosi”, “davosi” so‘zlarini qofiyadosh qilib keltiradi. She‘riyat uchun me‘yor sanaluvchi inversiya hodisasi tufayli gap egasi kesimdan so‘ng joylashtirilgan. Bu esa e‘tiborni ruboiyda aks etgan bosh g‘oyaga qaratishga xizmat qiladi.

Hikmatli so‘zlar shaklan maqolga yaqin turgani sababli aksariyat hollarda ularda **ichki qofiya** kuzatiladi. Ushbu holat “Nazm ul-javohir” uchun tanlangan hikmatlarga ham xosdir. Alisher Navoiy ruboiy yaratar ekan, ko‘p hollarda hikmatning ana shu ichki qofiyasidan foydalangan. Bu esa ruboiy va hikmat o‘rtasida ichki yaqinlik – intertekstual aloqani kuchaytirishga xizmat qilgan.

*Gar zahr bila kishiga kom o‘lsa achig‘,*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Yuz onchaki so‘z bila mudom o‘lsa achig‘,  
Har necha mazoq aro taom o‘lsa achig‘,  
Xushroqdurur andinki, kalom o‘lsa achig‘. [1,145]*

“Nazm ul-javohir”da 54-raqam ostida kelgan ushbu ruboiy Hazrat Alining “Hamuzot it-ta’omi xoyrun min xamuzot il-kalomi” (“Taom achchiqligi kalom achchiqligidan yaxshidir”) hikmati asosida yozilgan. Ko‘rinib turganidek, “taom” va “kalom” so‘zlari hikmatning ichki qofiyasini yuzaga keltirgan. Alisher Navoiy hikmat mazmunini ruboiyning uchinchi va to‘rtinchi misralariga joylaydi va hikmatdagi qofiyadosh so‘zlarni ushbu misralar uchun qofiya sifatida tanlaydi. Birinchi baytda esa mazkur ohangdosh so‘zlarga ham shaklan, ham mazmunan bog‘lanuvchi “kom” va “mudom” so‘zlari qofiya vazifasini bajargan.

Ba’zi hikmatlarda ichki qofiya uch so‘z doirasida yuzaga kelgan. Masalan, asarda 32-raqam bilan tartiblangan “Suls ul-iymoni hayo’un va sulsuhu vafoun va sulsuhu saxo’un” (“Iymonning uchdan biri hayo, yana uchdan biri vafo va yana uchdan biri saxovatdir”) hikmatida hayo, vafo va saxo so‘zlari ichki qofiyani tashkil etgan. Hikmatga ilova etilgan ruboiyda bu uch ohangdosh so‘z she’rning ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi misralari uchun qofiya vazifasini bajargan. To‘rtlikning birinchi misrasi uchun esa shoir bu uch tushuncha mazmunini bir nuqtada tutashtiruvchi so‘z qo‘llaydi (*bin*). Shu sababli o‘quvchi tasavvurida bu uch tushuncha faqat bir-biriga aloqador jihatlargina emas, balki bir-biriga chambarchas bog‘lanib, iymon binosini barpo etuvchi, binobarin, biri qulasa, ikkinchisi ham salomat qolishi mumkin bo‘lmagan muhim fazilatlar sifatida gavdalanadi:

*Uch qism ila iymong‘a bino fahm ayla,  
Avvalg‘isini aning hayo fahm ayla,  
Ikkinchisini dag‘i vafo fahm ayla,  
Uchinchini bilmasang, saxo fahm ayla [1,142].*

Ta’kidlash joizki, buyuk shoir har doim ham hikmatning ichki qofiyasini tashkil qiluvchi so‘zlarni ruboiy uchun qofiya sifatida istifoda etavermagan:

*Kim istasa mazhari karomat bo‘lmoq,  
Har nav’ ishda istiqomat bo‘lmoq,  
So‘zdur anga mujibi g‘aromat bulmoq,  
Til zabtidadur anga salomat bo‘lmoq [1,155].*

Ushbu ruboiy asosini tashkil qiluvchi “Salomat ul-insoni fi hifz ul-lisoni”, ya’ni “Inson salomatligi tilni tiyishdadir” hikmatida inson va lison so‘zlari ichki qofiyani hosil qilgani holda ruboiyda qofiya sifatida qo‘llanmagan. Ijodkor qofiya uchun hikmatdagi ilk kalom “salomat” so‘zini tanlaydi va unga “karomat”, “istiqomat” va

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“g‘aromat” (“pushaymonlik”) kabi ta‘sisli qofiyadosh so‘zlarni tanlab, muassasa san‘ati namunasini yaratadi.

Alisher Navoiyning qofiya qo‘llash mahoratida namoyon bo‘ladigan yangiliklar xususida so‘z borganda uning salaflar tomonidan keng qo‘llangan forsiy qofiyadosh so‘zlar tizimiga **turkiy so‘zlarni** mahorat bilan singdirganini alohida ta‘kidlash o‘rinlidir. “Nazm ul-javohir” asarida ana shunday ko‘rinishdagi qofiyalarning ko‘plab namunalarini uchratish mumkin.

*Mayl ayla hamisha mehribonlar sori,  
Yaxshilaru turfa kordonlar sori,  
Zol o‘ldi yamon kishiga qonlar sori,  
Ozdi kishikim, bordi yamonlar sori* [1,160].

Ushbu ruboiy Hazrat Alining “Zolla man rakana ilal-ashrari” (“Yomonlarga suyanganlar adashadilar”) hikmati asosida yozilgan. Uning kompozitsiyasi ham mutlaqo o‘ziga xos. Shoir birinchi baytda yaxshi kishilar sari mayl etishga da‘vat etsa, ikkinchi baytda shuning aksi: odamlarni yomonlikga yo‘llovchilar (zol) kishini qon sari yo‘llashini, demakkim, yomonlarga yondashganlar to‘g‘ri yo‘ldan ozishini ta‘kidlaydi. Bunda muallif she‘rning yaxshilar ta‘rifiga bag‘ishlangan qismida forsiy “mehribon” va “kordon” (ishbilarmon) so‘zlarini qofiya sifatida keltirsa, yomonlar haqidagi qismida turkiy “qon” va “yomon” so‘zlarini ularga qofiyadosh qiladi.

Navoiyshunoslikda san‘atkor shoirning turkiy tilning grammatik imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalana olgani ham uning qofiya qo‘llash mahoratining bir jihati ekani e‘tirof etilgan: “Arab tilida kesim gapning boshida keladi. Forsiy va turkiy tillarda esa, kesim xulosalovchi qism sifatida odatda gapning oxirida kelishini bilamiz. Fors tilida qofiyadosh fe‘llar tizimi juda kamligi sababli, fors shoirlari she‘rda fe‘lni o‘rtaroqqa olishga majbur bo‘ladilar. Shu sababli fors she‘riyatining grammatik tuzilishi tilning grammatik qoliplaridan farqlanadi. Turkiy tilda qofiyadosh fe‘llar turkumi ko‘pligini nozik anglagan Navoiy ko‘pincha shunday uslubni tanlaydiki, she‘rning nasriy bayoni bilan asl matnning o‘rtasida deyarli farq qolmaydi”[8,438].

*Donish tilabon har sari gar ketgaysen,  
Hifz aylamasang varaq yig‘ib netgaysen,  
Sa‘y aylaki, hifzi ganjig‘a yetgaysen,  
Yo‘q ulki, kutub sa‘y ila jam‘ etgaysen* [1,165].

Hazrat Alining “Alayka bil-hifzi dun al-jam‘i minal-kutubi” (“Kitoblarni yiqqandan ko‘ra, undagi hikmatlarni xotirangda saqlaganing yaxshiroq bo‘ladi”) hikmati mazmunini ifoda etuvchi ushbu ruboiydagi jummlar tuzilishiga e‘tibor

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

qaratsak, ularda gap bo‘laklarining deyarli o‘zgarmaganiga guvoh bo‘lamiz. Umuman olganda, “Nazm ul-javohir” asarida bu kabi ruboiylar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy buyuk so‘z san‘atkori sifatida qofiyaning asar mohiyatini ochib berishdagi o‘rnini yaxshi anglagani holda uning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanib, qofiya unsurining yangi-yangi qirralarini kashf etdi. Shu bois ham Navoiy qofiyalari bemisl jilo va jozibaga ega bo‘lishi bilan birga boy mazmunga egaligi va asarning g‘oyaviy mundarijasini aks ettirishi bilan ham o‘ziga xosdir. Xususan, “Nazm ul-javohir” ruboiylarida qo‘llangan qofiyalar shakl va mazmun jihatidan o‘zaro uyg‘un bo‘lib, bu asar poetikasining barkamolligini ta‘minlovchi omillardan biridir.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. МАТ. 20 жилдлик. 15-жилд. – Т.: Фан, 1999. (Alisher Navoi. Nazm ul-jawahir. MAT. 20 volumes. Volume 15. - T.: Fan, 1999.)
2. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси (“Хазойин ул-маоний” асосида). – Т.: Фан, 1983. (Ishakov Yo. Navoi’s poetics (based on Khazayin ul-Maani). - T.: Fan, 1983.)
3. Ражабова М. Алишер Навоий “Назм ул-жавоҳир” асарининг манбалари ва бадиияти: Фил. фан. номз. дисс. – Т., 2007. (Rajabova M. Sources and artistry of Alisher Navoi’s work "Nazm ul-Javahir". PhD. diss. - T., 2007.)
4. Рустамов А. Қофия нима? – Т.: Фан, 1975. (Rustamov A. What is the rhyme? – T.: Fan, 1975.)
5. Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967. (Khondamir. Makorim ul-akhlaq. - T., 1967.)
6. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи профессор А.Хайитметов) – Т.: Хазина, 1996. (Sheikh Ahmed bin Khudoidad Tarazi. Funun ul-baloga (preparer, author of the foreword and annotations Professor A. Hayitmetov) - T.: Khazina, 1996.)
7. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1998. (Hojiahmedov A. The merit of classical artistry. - T.: Sharq, 1998.)
8. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Тошкент: Tamaddun. 2018. – В.438.
9. Zohidova, Durдона. "FAZLI FOREWORD TO AMIRI GAZELLE." Journal of Modern Educational Achievements 3 (2022): 167-171.
10. Lutfullaevna, Durдона Zohidova. "Artistic Writing in Uvaisi's Poetry." ACADEMICIA: International Journal of Interdisciplinary Studies 11 (2021): 468-471.
11. Zohidova, Durдона. "POETIC INTERPRETATION OF HIJRON IN NAVOI'S LYRICS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429  
11.11 (2022): 359-361

12. Lutfullaevna, Durдона Zohidova. "Uvaysiy she'riyatida badiiy yozish." *ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali* 11 (2021): 468-471.
13. Kobilova, Z. B., and D. L. Zokhidova. "KOKAND LITERARY ENVIRONMENT." *Ann. For. Res* 65.1 (2022): 878-888.
14. DJURAEV, MM, and D. ZOHIDOVA. "O 'zbek adabiyoti tarixi fanining ishchi o 'quv dasturi (1-Kurs uchun)." (2019).
15. Lutfullaevna, Durдона Zokhidova. "Writing art in uwaysi poetry." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 468-471.
16. Khujaeva, Durдона Zohidova Shoirakhon. "HAMZA HAKIMZODA'S FAITHFUL POETRY." *Journal of Modern Educational Achievements* 5.5 (2023): 429-435.
17. Khujaeva, Durдона Zohidova Shoirakhon. "CREATIVE HISTORY OF ALISHER NAVOI'S WORK" *NAZM UL JAVAHIR.*" *Journal of Modern Educational Achievements* 5.5 (2023): 436-441.
18. Yusupovna, Khasanova Barno. "Artistic Interpretation Of The Image Of Amir Temur In The Work Of Askad Mukhtar." *Journal of Positive School Psychology* (2023): 896-900.
19. S.Khujaeva. "RHYTHMIC VARIATION IN ALISHER NAVOI'S WORK" *NAZM UL-JAVAHIR.*" *Pedagogy*, 2023, Vol. 7, No.1, 1244-1247.
20. Xo'jaeva, S. (2023). *ALISHER NAVOIY IJODIDA IYMON TALQINI.* *Academic research in educational sciences*, 4(Conference Proceedings 1), 180-187.
21. Khujaeva Shoirakhon. (2023). The Artistry of Alisher Navoi's work "Nazm Ul-Javohir". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 403-408.
22. Khujaeva Shoirakhon. (2023). The Use of Rhyming Arts in Alisher Navoi's Work *Nazm Ul Javohir.* *Journal of Advanced Zoology*, 44(S6), 1555-1560.